# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

9
2023




08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982

1931 TDIU TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

*Elektron nashr. 464 sahifa, 30-sentyabr, 2023-yil.*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Toshkulov Abduqodir Hamidovich,** i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
**Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich,** t.f.d., prof., TDIU rektori
**Oblamuradov Narzulla Naimovich,** i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari
**Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich,** Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
**Utayev Uktam Choriyevich,** O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
**Ochilov Farxod,** O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
**Eshov Mansur Po'latovich,** i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
**Yuldashev Maqsud Abdullayevich,** p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori
**Karimov Norboy G'aniyevich,** i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori
**Hakimov Nazar Hakimovich,** f.f.d. TDIU profesor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** i.f.d., TMI professori
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** i.f.n., TDIU Marketing kafedrasi professori
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** f.f.d., TDIU professori
**Po'latov Baxtiyor Alimovich,** t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti
**Axmedov Javohir Jamolovich,** i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** i.f.d., TDIU professori
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** TDIU katta o'qituvchisi
**Rustamov Ilhomiddin,** f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li,** TDIU Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar departamenti rahbari
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

**Ekspertlar kengashi:**
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** i.f.d, TDIU dotsenti
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti
**Imomqulov To'lqin Burxonovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

**Jurnalning ilmiyligi:**

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

# MUNDARIJA

Ichki turizmni rivojlanlantirishda davlatning oʻrni ........ 7
**Dehqonov Burxon Rustamovich,** tayanch doktorant

Qishloq xoʻjaligida sugʻorish tizimlari boshqaruvini rivojlantirish yoʻllari ........ 11
**Mirjamilova Hulkar Nurali qizi,** assistent

Yangi Oʻzbekiston sharoitida oʻsimliklar karantini tizimi faoliyatini takomillashtirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish ........ 15
**Alimov Murodkosim Achilovich,** mustaqil izlanuvchi

"Yashil iqtisodiyot"da energetika sohasini investitsion holatining statistik tahlili ........ 20
**Umarov Faxriddin Umar oʻgʻli,** katta oʻqituvchi

Yoqilgʻi-energetika korxonalari moliyaviy barqarorligini taʼminlashda investitsion faoliyatning ahamiyati ........ 26
**Ergashev Muhibbek Aslam oʻgʻli,** mustaqil izlanuvchi

Togʻli hududlarda turizm biznesining rivojlanishi ........ 31
**Abduvakil Alimov Komil oʻgʻli,** tayanch doktorant

Taʼlim turizmining nazariy asoslari va Oʻzbekistondagi tendensiyalari ........ 38
**Maxmudova Nodira Oʻktamovna,** tayanch doktorant

Turizmga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish shart sharoitlari ........ 43
**Poʻlatov Maʼmurjon Murodjon oʻgʻli,** tayanch doktorant

Mintaqaviy investitsion loyihalarning jozibadorligi tahlillari masalalari ........ 46
**Davlyatshayev Akmal Ashurmamatovich,** dotsent, i. f. n.

Yashil iqtisodiyotning tijorat banklaridagi ahamiyati va ularning raqamlashuvi ........ 51
**Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi,** dotsent, PhD

Turizmni rivojlantirishda "Tourism 4.0" konsepsiyasini joriy etish masalalari ........ 57
**Yuldasheva Dilnoza Ulugʻbekovna,** mustaqil tadqiqotchi

Davlat tomonidan qishloq xoʻjaligini moliyaviy qoʻllab-quvvatlash tizimini takomillashtirish ........ 62
**Ollokulova Feruza Mansurovna,** PhD; **Jabborov Jahongir Abduvohid oʻgʻli,** magistrant

Перспективные направления "Зелёной химии" для Республики Узбекистан ........ 66
**Султанходжаев Бахтиёр Забихуллаевич**

Oʻzbekistonda transport va logistika sohasini rivojlantirish strategiyasi ........ 73
**Usmonov Botir,** magistr

Hududlarda investitsion faollikni oshirishga qaratilgan mexanizmni takomillashtirish ........ 78
**Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi,** tayanch doktorant

Qurilish tarmoqlarida boshqaruv faoliyatining iqtisodiy koʻrsatkichlari tahlili ........ 82
**Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich,** PhD

Connection between interest rate on loans, cash flow and turnover of funds ........ 87
**Sharbat Abdullaeva, Professor; Sardor Abdullaev,** the applicant

Econometric Analysis of the Impact of IPO on the Market Capitalization of Companies ........ 92
**Shakhzod Saydullaev,** PhD.

Davlat xaridlarini takomillashtirishda byudjet mablagʻlaridan samarali foydalanishning mohiyati va zarurligi ........ 101
**Raximjonov Kamronbek Ilxomjon oʻgʻli,** mustaqil tadqiqotchi

Oʻzbekistonda toʻlov tizimining raqamli transformatsiyasining oʻziga xos xususiyatlari ........ 105
**Otamurodov Shavkat Nusratillayevich,** i. f. d. (DSc); **Eshqulova Nasiba Normoʻminovna,** oʻqituvchi

Tijorat banki xizmatlarida taʼlim kreditining oʻrni va uni takomillashtirish masalalari ........ 110
**Eldor Uskanov,** mustaqil tadqiqotchi

Korxonaning strategik boshqaruvini takomillashtirish ........ 114
**Maxmudov Nosir Maxmudovich,** professor; **Elmurodov Faxriddin Farxodovich,** magistratura tinglovchisi

Respublikada kichik biznesni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlash masalalari ........ 120
**Ergashev Otamurod Toshtemirovich,** PhD

Mulk iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda muammo va yechimlar ........ 125
**Ermatov Musojalil Komilovich,** kafedrasi dotsenti v. b.; **Abdunazarov Oybek Abdumutalibovich,** katta o'qituvchi

Using intelligent and decision support systems for developing University Curriculum: semi-automated need analysis approach ........ 132
**Abduraxmanov Zafar Batirovich; Ikromov Sayidolim Ismoilovich**

Challenges of Developing a Competitive Environment in the Context of Economic Liberalization ........ 138
**Akobirova Nodira Najmiddin qizi,** asisstent

Topical Issues of the Development of Recreational-Tourist and Military-Recreational Activities ........ 141
**Alimova Guzal Alisherovna,** PhD in economics, docent

Kreditlash jarayonlarida xulq-atvor iqtisodiyoti omilini joriy etish istiqbollari ........ 146
**Jo'rayeva Sevara Zakirovna,** mustaqil izlanuvchi (PhD)

Portfelli xorijiy investitsiyalarning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli ........ 152
**Kamilova Iroda Xusnitdinovna,** PhD

Exploring the Ethical Dimensions of Artificial Intelligence in Advancing Human Rights and Sustainability ........ 156
**Matkarimova Gulchekhra Abdusamatovna,** Professor

Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlashning nazariy asoslari ........ 163
**Maxmudov Rahimjon Xamid o'g'li,** mustaqil izlanuvchi

Barqaror iqtisodiy o'sishga yalpi talab va yalpi taklif omillarining ta'siri ........ 170
**Nabiyev Ulug'bek Mirodiljon o'g'li,** tayanch doktorant

The potential advantages of implementing the Total Quality Education Management (TQEM) concept ........ 175
**Otakulov Makhamadjon,** PhD

Kichik yashil biznesni yanada rivojlanitirish imkoniyatlari ........ 181
**Raximova Kizlarxon Ne'matjon qizi**

Jamg'armalar investitsiyalar manbasi sifatida ........ 185
**Sadikova Ra'no Abdullayevna,** i. f. n., dots.

Davlat moliyasining moddiy asosini oshirish orqali iqtisodiy o'sishga erishish ........ 188
**Shamsiyev Shuxrat Sayfutdin o'g'li,** mustaqil izlanuvchi

Aholi turmush darajasini oshirishda ijtimoiy himoyaning o'rni ........ 191
**Sherjonov Sherjon Alijan o'g'li,** mustaqil izlanuvchi

Xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lov qobiliyatini aniqlashning nazariy-uslubiy masalalari ........ 196
**Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li,** dekan o'rinbosari

Kichik sanoat zonalari faoliyatini samarali boshqarish tamoyillari ........ 203
**Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich,** dotsent; **Adilbekov Allayar Anvarbekovich,** magistrant

Aholini ijtimoiy himoya qilishda pensiya va ijtimoiy nafaqalarning o'rni ........ 206
**Aliyev Ma'ruf Komiljon o'g'li,** mustaqil izlanuvchisi

Использование методов управления для повышения эффективности производства на предприятиях ........ 212
**Алиева Надирахон Абдумаликовна,** PhD. доц.; **Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи,** ст. 3-курса

Korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish ........ 217
**Z. G. Allaberganov,** kafedra dotsenti

Davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining aholi bandligiga ta'siri va uni takomillashtirish ........ 222
**Asatullayev Xurshid Sunatullayevich,** i. f. n., professor

O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlariga raqamli iqtisodiyotni shakllantirish omillari ........ 228
**Axmedova Yulduz Sunatullayevna,** kafedra o'qituvchisi

Moliyaviy risklarni baholash usullari, boshqaruvdagi yondashuvlari ........ 232
**Baymuratova Gulirayxon Tursunbayevna,** kafedra dotsenti

Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda biznes jarayonlarini boshqarish . 236
**Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich,** mustaqil izlanuvchi

Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning ekonometrik modellashtirish ko'rsatkichlari ..... 242
**Berdiyev Akram O'ktamovich,** mustaqil izlanuvchi

Innovatsion muhitni shakllanishi va rivojlanishida investitsiyaning zarurligi ..... 253
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**

Meva-sabzavotchilik klasterlarida yashil moliyalashtirishning nazariy asoslari va xususiyatlari ..... 258
**Botirov Erkinjon Xayitovich,** kafedra dotsenti

O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali investitsion salohiyatni oshirish ..... 263
**G'aybullayev Odil Baxtiyarovich,** kafedra dotsenti v. b.

Tadbirkorlik subyektlarining innovatsion loyihalarini moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish ..... 269
**Jubanova Bayramgul Aymuratovna,** PhD

Soliq ma'muriyatchiligi va uni raqamlashtirishni ekspert baholash yo'llari ..... 272
**Ibragimov Boburshoh Bohodir o'g'li,** i. f. d. (PhD), doktorant (DSc)

Xalqaro standartlarga muvofiq buxgalteriya autsorserlari tomonidan moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilishni takomillashtirish ..... 278
**Islomov Alisher Baxtiyor o'g'li,** mustaqil izlanuvchi

O'zbekistonda moliyaviy hisob va hisobotni MHXSlariga transformatsiya qilishda asosiy vositalar hisobini tashkil etish masalalari ..... 284
**Qurbonova Shaxrinoz,** tayanch doktorant

Yerlarning degradatsiyaga uchrashi va oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar ..... 288
**Mamanazarova Nasiba Jo'rayevna,** kafedra doktoranti

Davlat sektorida ichki auditni tashkil etish xususiyatlari ..... 292
**Mamirjon Jalollidinov,** mustaqil izlanuvchi

Финансирование акционерных общества через рынок капитала ..... 297
**Муминов Шохжахон Суюнович,** ассистент кафедра

Необходимость развития предпринимательской и страховой деятельности риски на рынке Узбекистана ..... 302
**Муятдинов Махмуд Жалелович,** независимый исследователь

Инвестиционная привлекательность как фактор экономического развития страны ..... 307
**Назарова Гузал Баходировна**

Tijorat banklarida kreditlash jarayonlarini takomillashtirish masalalari ..... 312
**Nozima Abdullayeva,** mustaqil tadqiqotchi

Tijorat banklarining xizmatlar sohasini kreditlash amaliyotiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili ..... 316
**Nurmuxammedov Abdijabbar Yunusovich,** kafedra dotsenti v. b.

Современное решение, которое положительно влияет на логистические услуги и резко снижает смертность на перекрестках ..... 326
**Тажимуратов Умид Рузматович, Бахриев Иброхим Исометдинович,** кандидат медицинских наук, доцент; **Жуманиёзов Эркин Худойбергeнович,** кандидат медицинских наук, доцент; **Тажимуратов Рузмат Отажанович,** кандидат медицинских наук, **Тажимуратов Абдусами Умид угли,** ученик 10 класса

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida dividend siyosati va tendensiyalari tahlili ..... 333
**Temirov Abdulaziz Alimjanovich,** kafedra dotsenti, i. f. n.

Современное состояние инвестиционного потенциала Республики Узбекистан ..... 339
**Топилдиев Соҳибжон Раҳимжонович,** DSc; **Одилова Дилноза Барнаевна,** PhD

Portfelli xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli ..... 345
**Tosheva Ziroat Aliqul qizi**

Kichik biznes subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy jihatlari ........ 349
**To'rayeva Nafisa Odilovna,** mustaqil izlanuvchi

О достижениях Узбекистана в реализации национальных целей и задач устойчивого развития ........ 355
**Турсун Мухитович Ахмедов,** и. ф. д., проф.; **Гавхар Рустамовна Хидирова,** докторант, и. ф. ф. д., доц.

Влияние корпоративного управления в зеленой экономике ........ 359
**Уринов Бобур Насиллоевич,** заведующий кафедрой

Ko'chmas mulkni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari ........ 366
**Fayziyev Farrux Abdullaxojayevich,** kafedra dotsenti

Transport tizimi iqtisodiy rivojlantirish yo'nalishlari ........ 374
**Fayzullayev Javlonbek Sultonovich,** DSc.

Oliy ta'lim muassasalarida byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning ayrim fundamental masalalari ........ 382
**Xayriddinov Sh. B.,** mustaqil izlanuvchi

Xalqaro raqamli valyuta bozorini rivojlantirish istiqbollari ........ 385
**Xolov Nabijon Qaxramonovich,** PhD.

Nodavlat notijorat tashkilotlarning rivojlanishi va hozirgi shart-sharoitlari ........ 391
**Xusanov Otabek Nishonovich,** PhD, mustaqil izlanuvchi

Banklarining aktivlarini daromadliligini oshirish yo'llari ........ 396
**Elbusinova Umida Xamidullayevna,** kafedra dotsenti

Особенности методики проведения аудита затрат на производство ........ 401
**Хилола Икрамова Ровшан кизи,** базовый докторант

Ta'lim islohotlarining ma'naviyatdagi o'rni ........ 407
**Bekdavlat Aliyev**

O'zbekistonda tijorat banklari emission operatsiyalarining dolzarb masalalari ........ 412
**O'ktamova Nozima Narzulla qizi,** kafedra dotsenti

Moliyaviy barqarorligi tushunchasining konseptual mohiyati, turlari va asosiy tavsiflari ........ 416
**Eshquvatov Aziz Baxtiyorovich,** mustaqil izlanuvchi

XX asr jadid ma'rifatparvarlari Abdurahmon Toshkandiy va Abdulla Avloniy axloqiy konsepsiyalaridagi umumiylik va xususiylik ........ 420
**Abrorxon Asatulloyev Asatulloyevich,** falsafa fanlari doktori (PhD)

Yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy va huquqiy asoslari ........ 424
**Abdurahmanova Muqaddas Toxtasinovna**

Стратегии привлечения иностранных инвестиций для содействия устойчивому экономическому росту в Республике Узбекистан с акцентом на инициативы зеленого развития ........ 431
**Нилуфар Зикируллаева Дилмуродовна,** аспирант

Bank tizimi barqarorligini oshirishda kredit risklarining ahamiyati va ularni kamaytirish yo'llari ........ 440
**Xolmamatov Farhodjon Kubayevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor

Baholash faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari va uning huquqiy asoslari ........ 446
**Bobirjon Aktamov,** mustaqil tadqiqotchi

Suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy boshqarish samaradorligini kompleks baholash uslubiyoti ........ 454
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** t. f. n., mustaqil tadqiqotchi

Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini boshqarishni takomillashtirish metodologiyasini ishlab chiqish ........ 459
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li**

# NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARNING RIVOJLANISHI VA HOZIRGI SHART-SHAROITLARI



**Xusanov Otabek Nishonovich**
PhD, Mustaqil izlanuvchi,
O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akdemiyasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada nodavlat notijorat tashkilotlarining tarixi, rivojlanishining asosiy tendensiyalari, uning tushunchasi bo'yicha turli ilmiy-nazariy qarashlar, uning fuqarolik jamiyati instituti sifatida jamiyatda tutgan o'rni, boshqa institutlar bilan o'zaro aloqasi va nisbati, zamonaviy globallashuv davrida asosiy tendensiyalari xorij va milliy tadqiqotchilar ilmiy ishlari asosida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: fuqarolik jamiyati instituti, nodavlat notijorat tashkiloti, nohukumat tashkilot, "uchinchi sektor", ijtimoiy loyiha, nodavlat sektor.

Abstract: This article describes the main trends in the history of development of non-profit organizations, various scientific and theoretical views on their concept, the role in society as an institution of civil society, its interaction with other institutions and its correlation, and the main trends in the modern era of globalism.

Key words: civil society Institute, non-profit organization, non-governmental organization, "Third sector", social project, non-profit sector.

Аннотация: В данной статье на основе зарубежных и отечественных научно-исследовательских работ описываются основные тенденции в истории развития некоммерческих организаций, различные научно-теоретические взгляды на их концепцию, роль в обществе как института гражданского общества, его взаимодействие с другими институтами и его соотношение, основные тенденции в современную эпоху глобализма.

Ключевые слова: институт гражданского общества, некоммерческая организация, неправительственная организация, "Третий сектор", социальный проект, некоммерческий сектор.

## KIRISH

Davlat boshqaruvi organlari va NNTlar o'zaro hamjihatligiga erishish ko'p jihatdan jamiyatdagi turli ijtimoiy ziddiyatlarning oldini olish hamda mamlakatning izchil va barqaror rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib beradi.

O'zbekistonda NNTlar fenomeni chorak asrdan beri shakllanib kelmoqda, biroq uni fanlararo tadqiqotlarda o'rganish masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Davlat ijtimoiy siyosatining har tomonlama va jadal rivojlanishida NNTlarning roli va ahamiyatini tubdan oshirish, ularning davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan hamkorligini kuchaytirish ilmiy tadqiqotlarning muhim mavzusiga aylandi. Shu jihatdan mamlakatimizda davlat va NNTlarning ijtimoiy siyosat samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion hamkorlik mexanizmlarini yaratish dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev NNTlarning davlat boshqaruvida ishtirokini yanada oshirish bo'yicha Oliy Majlisga murojaatnomasida quyidagilarni ta'kidladi: "Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bugungi kunda aholini o'ylantirayotgan muammolarga davlat idoralari e'tiborini qaratib, o'zlarining asoslangan takliflarini berib borishlari maqsadga muvofiq bo'ladi [1].

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlarining davlat hamda jamiyat ishlaridagi ishtirokiga keng yo'l ochilgani, o'tgan davr mobaynida NNTlarining rolini kuchaytirish orqali fuqarolarning muhim sotsial-iqtisodiy muammolarini hal qilishga qaratilgan 300 dan ziyod qonun hujjatlari hayotga joriy etildi.

NNT atamasi ko'pgina davlatlar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan bo'lsada, aksariyat hollarda ularning konstitutsiyalarida bu atama o'rnida jamoat birlashmasi ishlatiladi. Shuningdek ko'pchilik davlatlarda NNTga nisbatan maxsus yuridik ta'rif mavjud emas.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nodavlat notijorat tashkiloti tushunchasidan foydalanilgan bo'lib [2], ushbu tushunchaning jamoat birlashmalari, kasaba uyushmalari, diniy tashkilotlar, uyushmalar, assotsiatsiyalar va boshqa tushunchalar bilan o'zaro nisbati masalalarini tahlil qilish zarur.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Sh. Nazarovning fikricha har qanday jamoat tashkiloti ijtimoiy va, eng avvalo, huquqiy normalarga asoslanadigan tashkiliy birlik sifatida namoyon bo'ladi. Jamoat tashkilotlari ongli ravishda tizimlashgan ichki tashkiliy munosabatlar yig'indisi va ijtimoiy voqelikka maqsadga muvofiq tarzda ta'sir etish uchun zarur bo'lgan tashkiliy usullarning butun bir kompleksiga ega bo'lgan institut sifatida maydonga chiqadi [3].

S. Jo'rayeva fuqarolik jamiyati institutlarining vazifalari sifatida ko'proq siyosiy-huquqiy jihatiga e'tibor qaratadi. Jumladan, "aholining siyosiy hayotda faol ishtirok etishiga ko'maklashish o'z ta'sir doirasidagi fuqarolarni hukumat tomonidan qabul qilingan yoki taytorlanayotgan qarorlar to'g'risida xabardor qilish, qaror qabul qilish jarayoniga ta'sir ko'rsatish yo'llarini tushuntirish"deb qayd etilgan [4].

D. Xolmanova nodavlat-notijorat tashkilotlarining paydo bo'lishi xayriya jamg'armalari bilan bog'liq ekanligini keltirib o'tgan [5].

E. V. Nelyubinaning qayd etishicha, nodavlat tashkilotlarning asosiy vazifasi davlat tomonidan va jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-madaniy sohalariga jalb qilingan ishtirokchilari tomonidan inson huquqlariga rioya qilinishi uchun fuqarolik nazoratini ta'minlashdan iborat [6].

L. M. Salamon va S. V. Sokolovski tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda nohukumat tashkilotlar davlat va biznes bilan bir qatorda "uchinchi sektor"ni tashkil qilishini qayd etganlar. Ular nodavlat tashkilotlarning yana boshqa nomlanishi sifatida fuqarolik yoki notijorat tashkilotlar degan tushunchalar mavjudligini ham e'tirof etishadi [7].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada induksiya va deduksiya, monografik kuzatish, omilli tahlil, sintez va boshqa usullardan keng foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Nodavlat notijorat tashkilotlari umuman keng miqyosda olganda jamoat birlashmalari tizimida oraliq o'rinni egallagan holda huquqiy jihatdan asoslangan ijtimoiy tushunchadir. Oraliq o'rinni egallashi deganda barcha jamoat birlashmalarining tub negizi qisman nodavlat notijorat tashkilotlariga kelib tutashadi. Masalan: jamoat birlashmalarining turi bo'lgan kasaba uyushmasi va siyosiy partiya tuzilishida ham fuqarolarining manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi dastlabki o'ringa qo'yiladi. Nodavlat notijorat tashkilotlari jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ifodalashi hamda himoya qilishi asosiy maqsadlaridan biri sanaladi. Shuni ta'kidlash joizki mustaqillika erishgan keyin nodavlat notijorat tashkillotlari malakatimizda oshib borish tendensiyalari kuzatilmoqda.




1-diagramma: O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarning o'sish dinamikasi 1991–2023-yillar oralig'ida

Grafika shuni ko'rsatadiki, so'nggi yilllarda O'zbekistonda NNTlarni ro'yxatga olish soni doimiy ravishda o'sib bordi va 1991-yildagi 95 NNTdan 2023-yil 1-yanvar holatiga 9500 yetdi, deyarli yuz baravarga baravar ko'paydi.

Birinchidan, raqamlar qanday hisoblanganligini va qanday NNTlarning tahmin qilinadigan ijobiy dinamikani tashkil etishini tushunish kerak. Muhimi, ularning umumiy soniga barcha shahar, tuman va viloyat bo'limlari va NNT, siyosiy partiyalar va kasaba uyushmalarining bo'linmalari kiradi, bu esa miqdor jihatidan ko'payadigan samaraga olib keladi.

O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlaring negizida demokratik qadriyatlarni, aholining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga, insoniylik muammolarini, hududlarning muayyan sotsial-iqtisodiy masalalarni hal qilishga, fuqarolarning ijtimoiy faolligini yanada oshirish masalalari yotadi. Davlat ijtimoiy siyosatida yolg‘iz qariyalarni, nogironlarni va aholining boshqa ijtimoiy muhtoj qatlamlarini ijtimoiy himoyalash bo‘yicha amaliy va manzilli chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta’minlash, NNTlar ijtimoiy xizmat ko‘rsatish mexanizmlarini takomillashtirish, ijtimoiy-tibbiy muassasalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan.




1-chizma: Mamlakatimizda nodavlat notijorat tashkilotlarning viloyatlar kesmida sonlari

Tahlil natijalariga ko‘ra, davlatning aholiga ijtimoiy xizmatlarni yetkazib berishdagi ustunlik jihatlari quyidagilarda o‘z aksini topgan: davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining ma’muriy, moliyaviy, tashkiliy-kadrlar hamda turli infratuzilmalarga egaligi; ijtimoiy xizmatlarning ishonchliligi, barqarorligi, qonun bilan himoyalanganligi; sohaga dahldor normativ-huquqiy bazaning shakllanganligini kuzatish mumikn. Shuning barobarida ijtimoiy sohada davlatning kuchli nazoratining mavjudligi; aholining xususiy va nodavlat sektorlariga nisbatan ko‘proq davlatga ishonishi; ijtimoiy soha boshqaruvida ko‘p yillik katta tajribaga egaligi; markazlashgan holda mavjud muammoni baholash, tahlil qilish va bartaraf qilish yo‘llari hamda usullarini qisqa vaqt ichida ishlab chiqishi; aholiga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatilishida andoza, universal va kompleksli yondashuvning mavjudligi nazarda tutiladi. Holbuki, aholiga ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlarning nisbatan arzonligi va ko‘p hollarda bepulligi; ijtimoiy xizmatlarning manzilliligi; ijtimoiy xizmatlarning ommaviyligi va kafolatlanganligi; davlatning ijtimoiy xizmatlaridan barcha fuqarolarning foydalana olish imkoniyatining yaratilganligi va boshqalarni ta’kidlash joiz.




2-chizma: Nodavlat notijorat tashkilotlarning sohalar kesimidagi tahlili

Davlat tomonidan NNTlarning faoliyatini moliyalashtirishning ikki asosiy jihatlarini ko‘rish mumkin, birinchisi, “loyihaviy moliyalashtirish”, ikkinchisi, “dasturiy moliyalashtirish”. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, har ikkala usullarning ijobiy va salbiy jihatlar mavjud. Birinchi holatda davlat NNtlarni qisqa muddatli ijtimoiy loyihalarini (2–4 yil) moliyalashtiradi. Ikkinchi holatda davlat uzoq muddatli ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy buyurtmalar asosida amalga oshiradi. Buning salbiy jihatlar shundan iboratki, NNTlarga ajratilgan mablag‘lar uzoq muddatga mo‘ljallangan bo‘lsada, ba’zi holatlarda NNTlar ulardan to‘liq foydalana olmaydi. Bundan tashqari, yirik raqobatchilari ularning imkoniyatlarini chegaralab qo‘yyadi.

1-jadval: Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi, hududiy jamoat fondlari va NNTlarni qo‘llab quvvatlash jamoat fondi tomonidan 2008–2022-yillarda ajratilgagn mablag‘lar to‘g‘risida ma’lumot

| Ajratilgan mablag‘ yillar bo‘yicha | | | 2015 | 2016 | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Oliy Majlis fondi | Jami | soni | 300 | 275 | 263 | 291 | 321 | 267 | 474 | 218 |
| | | mln. so‘m | 10695 | 12163 | 12370 | 18250 | 37817 | 44044 | 118764 | 100045 |
| | Davlat subsidiyasi | soni | 6 | 6 | 6 | 7 | 11 | 15 | 161 | 36 |
| | | mln. so‘m | 3250 | 3470 | 4270 | 8200 | 25017 | 29644 | 101 064 | 78 445 |
| | Davlat ijtimoiy buyurtmasi | soni | 15 | 15 | 9 | 8 | 12 | 15 | 23 | 17 |
| | | mln. so‘m | 2000 | 2470 | 2070 | 2250 | 4000 | 5 200 | 14300 | 14 000 |
| | Davlat granti | soni | 279 | 254 | 248 | 276 | 298 | 237 | 290 | 165 |
| | | mln. so‘m | 5445 | 6223 | 6030 | 7800 | 8800 | 9 200 | 11 900 | 12 000 |

Fikrimizcha, ijtimoiy buyurtma NNTlar uchun davlat bilan hamkorlik qilishning qiyin usulidir. Chunki NNTlar o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadlarga qisqa muddatda va chegaralangan moliyaviy mablag‘lar evaziga amalga oshirishi kerak. Unda yangi g‘oyalar va innovatsiyalar paydo bo‘lmaydi, balki buyurtmachi tomonidan oldindan belgilangan usul va vositalar asosida amalga oshirilishi belgilab qo‘yiladi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, davlatning NNTlar bilan munosabatining shakllari mavjud. Davlat subsidiyasi O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘lari hisobidan nodavlat notijorat tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlash uchun beriladigan va maxsus loyihalar bilan bog‘liq bo‘lmagan moliyaviy yoki boshqa moddiy ko‘makdir. Davlat granti nodavlat notijorat tashkilotlariga ijtimoiy foydali maqsadlarga erishishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish uchun tanlov asosida O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan beriladigan pul mablag‘lari va moddiy resurslardir. Davlat ijtimoiy buyurtmasi – Nodavlat notijorat tashkilotlariga davlat ijtimoiy buyurtmasi sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun davlat organi va nodavlat notijorat tashkiloti o‘rtasida shartnoma tuzish orqali ishlarni bajarish yoki tadbirlar o‘tkazishga qaratilgan davlat topshirig‘idan iboratdir.

Shu bilan birga davlat boshqaruvi organlari sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun nodavlat notijorat tashkilotlariga byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan bevosita davlat ijtimoiy buyurtmasi berishi qonun hujjatlarda beligilab qo‘yilgan. Bu masalaning qay darajada muhim va dolzarbligi bilan belgilanadi. O‘zbekistonda NNT tomonidan bajariladigan yo‘nalishlar bo‘yicha davlat ijtimoiy buyurtmalari uchun ajratiladigan mablag‘lar ro‘yxati va hajmi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, O‘zbekistonda davlat va NNTlarning hamkorlik shakllari tadrijiy ravishda rivojlanib bormoqda. 2019-yildan boshlab mahalliy NNTlar byudjet assignivlari orqali moliyalashtirish amalga oshiriladi. Bu O‘zbekiston uchun davlat va NNTlar hamkorligining yangi shakllaridan biridir. Buning ijobiy jihatlari shundaki, NNTlar mahalliy davlat boshqaruvi organlari bilan kelishgan holda ijtimoiy buyurtma asosida byudjet mablag‘laridan foydalanish imkoniyati mavjud bo‘ladi. Ushbu tizimda qisqa muddatli ijtimoiy loyihalar amalga oshiriladi. Endilikda mahalliy davlat boshqaruvi organlari hududlardagi NNTlar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqot qila boshlaydi. Mavjud muammolar bartaraf qilinadi va hamkorlikning yangi usul va vositalari ishlab chiqiladi. Eng muhimi NNTlar davlat organlarining doimiy e’tiborida bo‘lib va ijtimoiy masalalarda ishonchli hamkoriga aylanadi.

O‘zbekistonda davlat ijtimoiy siyosati samaradorligini oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlarining roli oshirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar xulosasidan kelib chiqib quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Markaziy va hududiy telekanallarda “NNTlar muloqot klubi”larini tashqil qilish va doimiy ravishda ko‘rsatuvlarni tayyorlash muhim strategik ahamiyatga ega. NNTlarni OAVlari orqali xalq bilan ochiq muloqot qilish

imkoniyatini yaratish lozim. Ushbu mexanizm orqali xalqni NNTlarga bo‘lgan ishonchini ortishi ta’minlanadi. Shunday media maydonda NNTlarning manfaatlari agregatsiya va artikulyatsiya qilinadi. NNTlarning ijtimoiy ahamiyatga molik ishlari respublika va mahalliy OAVda tizimlilik asosida yoritilishi kerak. Buning NNTlar foliyatini keng yoritib beruvchi maxsus teleko‘rsatuvlar tayyorlash maqsadga muvofiq. Markaziy va hududiy telekanallarda NNTlar tomonidan aholiga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatayotganligi to‘g‘risida video roliklarni berib borish lozim. Internet (TAS-IX doirasida mover. uz, mytube. uz, mytorrent. biz va boshqalar) portallar orqali nodavlat tashkilotlar tomonidan ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatilishiga doir videoroliklar berib borish maqsadga muvofiq;

Butun jahonda NNTlarni qo‘shimcha moliyalashtirishning qo‘shimcha usuli bo‘lgan “Fandrayzing” va “Kraudfanding” tizimini joriy qilishning nazariy va amaliy masalalarini jahon tajribasi asosida o‘rganish lozim;

Uyushmagan yoshlarni NNTlar faoliyatiga jalb qilish, qiziqishini oshirish maqsadida ular uchun motivatsiyalar, qisqa muddatli innovatsion ijtimoiy loyihalarga jalb qilish, ularni aholining turli qatlamlariga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishga jalb qilish, ularning mehnatini e’tirof qilish, rag‘batlantirish usullarni metodologiyasini ishlab chiqish zarur.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. www.uza.uz
2. “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. // (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999, 5-son, 116-modda.
3. Nazarov Sh. Konstitutsiya va jamoat birlashmalari. / Mas’ul muharrir yuridik fanlar doktori, professor Saidov A. X. – Toshkent: TDYuI, 2012. – 30-b.
4. Jo‘rayeva S. Fuqarolarning siyosiy madaniyatini yuksaltirishda fuqarolik jamiyati institutlarining roli // Demokratlashtirish va inson huquqlari. – 2009. – № 4. – 24-b.
5. Xolmanova D. R. O‘zbekiston Respublikasida nodavlat notijorat tashkilotlarning jamoat birlashmalari tizimidagi o‘rni. Yurid. fan. nom.... dis. TDYuU, Toshkent, 2012. http://diss. natlib. uz/ru-RU/ResearchWork/OnlineView/37583. (Xolmanova D. R. The role of non-governmental non-profit organizations in the system of public associations in the Republic of Uzbekistan. Disser. cand. of jur. sciences. TSUL, Tashkent, 2012.)
6. Нелюбина Е. В. Гарантии и защита социальных прав человека и гражданина в Российской Федерации // Государство и право. 2010. – № 5. – С. 101–102.
7. Salamon, L. M. and Sokolowski, S. W., Beyond nonprofits: Re-conceptualizing the third sector. VOLUNTAS: International Journal of Voluntary and Nonprofit Organizations, 27(4), 2016. – PP. 1515–1545; Anheier, H. K. and Salamon, L. M., The nonprofit sector in comparative perspective. The nonprofit sector: A research handbook, 2, 2006. – PP. 90–114.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Xondamir Ismoilov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 9**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.